

**TALABALARING NUTQ QOBILIYATINI MUSTAQIL OSHIRISH
JARAYONINING ILMIY ASOSLARI VA CHET TILLARINI
O`RGANISHNING AHAMIYATI**

Axmadova Durdona Axror qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi fakulteti talabasi.

Abstrakt: nutq qobiliyati har bir insonda yoshlikdan shakllanadigan qobiliyat turi hisoblanadi. Nutq qobiliyatini oshirishning bir nechta usullari mavjud bo`lib, shulardan ayrimlari talabalar uchun juda qo`l keadi. Ushbu maqola nutq qobiliyatini talbalarda mustaqil ravishda oshirishning ilmiy asoslari va nut qobiliyatini oshirishda chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o`rganishning muhim ahamiyatlari haqida so`z yuritadi.

Kalit so`zlar: notiqlik, nutq, ommaviy nutq, Cherchill, Aleksandr, Savonarola, xorijiy til, talaba.

Kirish qism: xorijiy tillarni o`rganish, ushbu jumla o`z qamroviga juda katta tushunchani singdirgan bo`lib, ulardan eng asosiysi nutq malakasini oshirish hisoblanadi. Chet tilini o`rganishni boshlagan har bir odam, avvalo o`z oldiga o`sha til so`zlashuv nutqini o`zlashtirish maqsadi bilan boshlaydi. Ayniqsa, talabalar uchun bu juda muhimdir. Mustaqil ravishda nutq o`stirishning ko`plab usullari mavjud. Ulardan ayrimlarini quyida ko`rib o`tamiz.

Eng avvalo, har bir yosh talabada o`z nutqini oshirishga bo`lgan ishtiyoq bo`lishi lozim. Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Notiq inson avvalo o`z gapi rayotgan gapini o`ylab va mantiqqa tayanib gapi rishi lozimdir. Aks xolda nutq lo`nda va ravon bo`lmay, tinglovchini zeriktirib qo`yishi mumkin. Hattoki, oddiy bir she`rni o`qish uchun ham mahorat va ishtiyoq kerak bo`ladi. Maftuna Uraimshikovaning "Notiqlik qobiliyatlarini oshirishda talabalarning notiqlik klublari haqidagi qarashlari" maqolasida omma oldida nutq so`zlash haqida shunday fikr yuritilgan: Omma oldida nutq so`zlash tadqiqot ko`nikmalarini rivojlantirishning bir usulidir. Chunki notiqlar klubi turli yangi mavzular bo`yicha izlanishlar olib boorish imkoniyatini ham beradi. Natijada talabalar nutq tayyorlash va nutq so`zlash uchun turli manbalardan ma`lumot yig`ish odatini shakllantirdilar. Bu tushuncha Iberri-Shea (2009) fikriga mos ekanligi aniqlandi, u "Ommaviy nutq

vazifalaritalablardan tadqiqot olib borishni va o`z dalillarini qo`llab-quvvatlashni talab qiladi" (23-bet). Xuddi shunday, Rajan ham o`z xatolaridan xabardor bo`lganini aytdi, ammo bu uning ravnligini kamaytirmadi. U xatosidan xabardor bo`lganidan keyin ham aniqlik va ravnlikni saqlashni o`rganganini aytdi. Eng muhimi, ishtirokchilar o`zlarini notiq sifatida ko`rsatishni , latifalar va iqtiboslardan foydalanishni, turli mavzularda tadqiqot qilishni o`rganadilar va notiq sifatida rivojlandilar. Xuddi shu nuqtai nazardan, Al-Tamimi (2014) ta`kidlashicha, "ma`ruzachilar klubi kabi ommaviy nutq ESL/EFL talabalari uchun nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mos pedagogik faoliyat ekanligi isbotlangan" (66-bet). Ular o`z hikoyalarini kontekst bilan yaxshiroq bog`lashlari, kuzatish va tajribadan xulosa chiqarishlari va samarali xulosa chiqarishlari mumkin. Ushbu ko`nikmalar haqiqiy hayotda til va notiqlikni o`rganishdan tashqari muhim bo`lishi mumkin. Shunday qilib, notiqlar klubida nutq so`zlash EFL o`rganuvchilariga odamlarga ta`sir qilish uchun tildan foydalanish uchun katta imkoniyat beradi. Ular o`zlarining kommunikativ kompetensiyalaridan foydalanishni o`rganadilar - "kimga qachon va qanday aytishni bilish" (Hymes, 1971, Larseen Freeman, 2000da keltirilgan) odamlarga tabiiy sharoitda bo`lgani kabi ongsiz ravishda tilni egallahsga yordam beradi (Krashen, 1982)." (4-5-betlar).

Ko`rinib turibdiki, nutqni ravn shakllantirish doim ham oson ish emas. Talabalarga, ayniqsa mustaqil o`rganuvchilarga maslahat, albatta, ko`proq buyuk notiqlar hayotiga nazar solib ulardan kerakli darslarni olish yoki ular qoldirgan boy ilmiy me`rosdan oqilona foydalangan holda ish yuritish joizdir. Endi shunday notiqlardan ayrimlarini sanab o`tamiz.

1. Cherchill. 20-asrning birinchi yarmida Britaniya bosh vaziri. Urush davrida eng buyuk rahbarlardan biri hisoblanadi. Uning karyerasida journalist yoki Buyuk Britaniya armiyasining zobiti lavozimlari ajralib turadi. Uning yutuqlari orasidan biz adabiyot bo`yicha Nobel mukofotini va Amerika Qo`shma Shtatlarining faxriy fuqarosining e`tirofini topamiz.

2. Aleksandr Makedonskiy. Aleksandr Makedoniya qiroli mil.avv 336 dan 323 gacha. Osiyoni bosib olishga rahbarlik qilgan. U siyosiy rahbar va strateg sifatida yunonlarning Arabiston yarimorolining katta hududlari bo'ylab kengayishiga yordam beradi. U Bobilni bosib olganidan keyin vafot etadi.

3. Girolamo Savonarola. Papa Aleksandr VI davrida Dominikan voizi. U Florensiya sobori ichidagi ko'p qirrali va'zlari bilan mashhur edi. U papa

papasida yovuzlik borligini tushuntirib, Florentsiya aholisini xabardor qila oldi. Xuddi shu tarzda, u moddiy boyliklarga qarshi targ'ibot bilan mashxur "behuda gulxan" ni boshlab beradi.

Ushbu yuqoridagi ikki usul talabaning omma oldida qo`rqmasdan o`z fikrini erkin bayon qilishga yordam beradi. Xorijiy tillarni o`rganishning nutqqa ta`siriga keladigan bo`lsak, yuqoridagi barcha usullar ingliz tilida tushuntirligan, bu esa beixtiyor o`quvchini ingliz tilini o`rganishga boshlaydi. Til o`rganish siz izlayotgan ma`lumot qanchalik qiziqligi bilan maqroqli jarayonga aylanib boradi.

Xulosa: xulosa o`rnida ta`kidlash joizki, har qanday ko`nikmani egallash uchun, avvalo, ishtiyoy kerak bo`ladi. Talabalarga ayniqsa, mustaqil ravishda notiqlik ko`nikmalarini oshirmoqchi bo`lgan talabalarga uzoq muddatli konsistensiya zarur bol`ladi. Chunki hammasi uchun vaqt zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Notiqlik qobiliyatlarini oshirishda talabalarning notiqlik klublari haqidagi qarashlari M.R.Uraimshikova / b 4,5
2. <https://uz.unansea.com/buyuk-notiqlar-tarix-ovozlar/>